

# **Termiz shahar Xalq deputatlari shahar Kengashi huzuridagi “Xalqparvar” komissiyasining birinchi yig’ilishi bo’lib o’tdi.**



Termiz shahar Xalq deputatlari shahar Kengashi huzuridagi “Xalqparvar” komissiyasining birinchi yig’ilishi bo’lib o’tdi.

Yig’ilishda Xalq deputatlari shahar Kengashi huzuridagi “Xalqparvar” komissiyasi rais o’rinbosari G.N.Kravchenya so’zga chiqib, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 15 martda tasdiqlangan “Uy-joy qurilishi va ipoteka bozorini rivojlantirishga doir ustuvor vazifalarning amalga oshirilishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish to’g’risida”gi №QQ-203-IV-sonli qarori hamda mazkur qaror asosida qabul qilingan Xalq deputatlari shahar Kengashining 2021 yil 29 martdagi №168/VI-28-sonli qarori asosida “Xalqparvar” komissiyasi va qaror bilan tasdiqlangan komissiya nizomning mazmun va mohiyati haqida to’liq ma’lumot berib o’tdi. Shuningdek, rais o’rnibosari o’z so’zida “Xalqparvar” komissiyasining asosiy

maqsadi shahar hokimligi hamda mas'ul davlat idoralarining uy-joylar qurish uchun yer uchastkalarini ajratish, qurilish ishlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish, subsidiya to'lanadigan fuqarolarni tanlab olish, uy-joy sharoitlarni yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolar ro'yxatini shakllantirish borasidagi ishlar ustidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini o'rnatishdan iboratligini, aholi uchun qurilayotgan uy-joylarga yer maydonlari ajratish, qurilish ishlarini sifatli amalga oshirish va o'z muddatlarda tugatish, uy-joylarga muhtoj fuqarolar ro'yxatini shakllantirish, ipoteka krediti, subsidiyalar oluvchilar o'rtasida mablag'larni adolatli taqsimlash borasidagi ishlar ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, sohaga byurokratiya, sansalorlik va boshqa ma'muriy to'siqlarning oldini olishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish, uy-joy qurilishi sohasiga quruvchi xususiy pudrat tashkilotlarini keng jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar shaffofligini ta'minlash bo'yicha zaruriy choralar ko'rish, ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashga doir dastur ijrosining borishi to'g'risida shahar hokimligining axborotlarini eshitishga ko'maklashish, o'z vakolatiga kiritilgan masalalar yuzasidan shahar Kengashi kotibiyati bilan hamkorlik qilish hamda "Xalqparvar" komissiyasi qonunchilik xujjatlariga muvofiq boshqa vaziflarni amalga oshirilishi haqida batafsil ma'lumot berib o'tdi.